

Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon

Yangilik, islohot hayotning hech bir sohasiga osonlikcha kirib kelmaydi – yo’lda to’siqlarga uchrashi tabiiy. Ularni yengib o’tish: ustuvor qarashlarni, tushunchalarni, ko’nikmalarni sindirish oson bo’lmaydi. Yangilik degani o’zi sindirgan narsadan afzalligini isbotlay olgan taqdirdagina yashab qoladi.

70-yillarning boshida tanqidchilar mavjud adabiy tafakkurni yangilash istagidan kelib chiqqan dadil eksperimentlarni urkaltak qilib, goh matbuot orqali, goh yozuvchilar uyushmasidagi anjumanlarda shoirlardan nima demoqchi ekanini tushuntirib berishni talab qilib yurgan kezlarda tengdoshlari ruhini, yutug’u kamchiliklarini yaxshi biladigan zakiy, tiyrak va, eng muhimi, o’zi ham ijodkor bir tanqidchiga ehtiyoj bor edi. Bu tanqidchi zimmasiga og’ir vazifa – tengdoshlari ijodi tahlili orqali yangicha adabiy-tanqidiy tafakkurni shakllantirish, yangi asarlarni asossiz tanquidu hujumlardan himoya qilish ham tushar edi. O’sha paytlar mana shu yukni taniqli yozuvchi, munaqqid Ahmad A’zam gardaniga oldi.

O’sha kezlarda A.A’zamning adabiy-tanqidiy qarashlari yangiligi, vazminligi, teranligi va, eng muhimi, eskicha mantiq qoliplarini buzib tashlayotgani bilan ajralib turar edi. U aksariyat tanqidchilarni gangitib qo’ygan eksperimentlar, shakliy izlanishlar o’zbek tafakkuridan unchalik ham uzab ketmaganini, maqsad “shaklni o’zgartirish orqali mazmunni yangilash” ekanini maqolayu tadqiqotlarida tushuntirib bera boshladi. Ko’p o’tmay adabiy jamoatchilik uning dalillarini qabul qildi va an’anaviy adabiy tanqid tishini g’ijirlatib bo’lsa-da, to’nini o’ngarib kiyib, yangi avlodning adabiy tajribalari bilan hisoblashadigan bo’ldi.

Nihoyat uzoq tortishuvlardan so’ng adabiyotning “eksperiment tsexi” ham bo’lishi kerakligi xususida ma’lum bir xulosa va murosaga kelindi. Boshqa tanqidchilarning mehnatini zarracha kamsitmagan holda bunda Ahmad A’zamning xizmati beqiyos ekanini alohida ta’kidlashni istardim.

Biroq oradan 15-20 yil vaqt o’tib, bu masalaning yana o’rtaga chiqqani, bahsga adabiy-tanqidiy qarashlari 20-asrning 50-60-yillari darajasida qotib qolgan, ayrim oqsoqol adiblar ham aralashib, yoshlarni he yo’q, be yo’q, nigilizmu xudosizlikda ayblay boshlagani, folklyor va mumtoz adabiyot haqida tadqiqot qilib yurgan olimlarning ham bir yumalab “eksperimentshunosi” bo’lib qolgani odamni

ajablantiradi. Buning sababi o'sha chog'lar adabiy muhitda hukm surgan muayyan parokandalik, adabiy tanqidning "bedarvoza qolgani" bilan bog'liq bo'lsa ajab emas.

Ahmad A'zam mansub avlod zimmasidagi ma'rifatparvarlik vazifasi nihoyatda mas'uliyatli edi. U mafkura urkaltaklariyu qirg'inlari ta'sirida boshini kosasi ichiga tortib olgan mahdud milliy adabiyotni a) mutolaa; b) tarjima; v) tajriba orqali yangi bosqichga ko'tarishni ko'zlagan edi.

O'sha avlod vakillarining sa'y-harakatlari tufayli endi har bir davrada "changalzor-silvalar"dan bahs ochiladigan, adabiy jamoatchilik dunyo adabiyotini izlab o'qiydigan bo'lgan edi. Sovet davridagi xorijiy yozuvchilarning asarlarini ruscha orqali o'zbekchalashtirish amaliyotidan asliyatdan tarjima qilishga o'tila boshladi.

O'sha yillari Ahmad A'zam munaqqidu yozuvchiligi barobarida badiiy tarjimaga ham qo'l urdi va Alber Kamyuning qator asarlarini o'zbekchalashtirdi. Adabiy jamoatchilik bu tarjimalarni juda iliq kutib oldi va buyuk fransuz adibi o'zbekning ham o'z yozuvchisiga aylandi.

Tinimsiz mutolaa va tarjima ta'sirida paydo bo'la boshlagan izlanishlar o'z samarasini bera boshladi. Boshqa eksperimentlar qatori intellektual proza vujudga keldi. Ahmad A'zamning ham qator novella, hikoya va qissalari nashr etila boshladi. Lekin u tengdoshlaridan farqli o'laroq, biror yozuvchi yoki milliy adabiyotga taqlid qilmadi, fikrlash tarzi ham, mulohazakorligi ham sof o'zbekcha edi. So'zdan foydalanish mahorati, asarlarining betakror uslubi, jonli tili, ramzlar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos fabulasi – hamma-hammasi yangilik edi.

Ahmad A'zam bilan tengdoshlari ijodida yana bir hali o'z tadqiqotini kutayotgan jihat bor. Aynan shunga o'xshash fenomenlarni rus shoiri A.Voznesenskiy "eskizensializm" deb atagan edi. Ma'nosi – kelgusi voqealarning adabiy asarlarda u yoki bu tarzda zuhur bo'lishi.

70-yillarda boshlangan adabiy eksperimentlar nafaqat adabiyotning qotib qolgan qoliplari, qolaversa, kommunistik mafkuraning yalpi bosimiga ham qarshi o'ziga xos isyon edi. Bir zamonlar faqat xos davralarda o'tkazilgan mushoiralarning 60-70 yillar – turg'unlik hukm surgan yillarga kelib, stadionlarga chiqib ketgani ham shu bilan bog'liq. Xullas, adabiyotda shaklu qoliplarni buzishga bo'lgan harakat totalitar tuzumning patarat topishi bilan tugadi. Yoki yanayam to'g'rirog'i, o'sha shakliy izlanishlar 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshidagi ijtimoiy-siyosiy taloto'plar andozasi edi.

E'tibor qilinsa, Ahmad A'zamning o'sha paytlarda yozilgan prozasida ham ayni kayfiyat: yashab turgan sharoitdan qoniqmaslik, Bahri muhitga ketib qolish istagi (Mahdi, "Asqartog' tomonlarda"), soyasini yo'qotib qo'yib, jamiyatda raddi ma'arakaga aylanish ("Soyasini yo'qotgan odam") bo'rtib ko'rinadi. Bu o'zlikni anglash, jamiyat javob talab qilayotgan savollarga javob izlash iztirobi edi. Iztirobli

shundaki, javobni na o'qiyotgan kitoblaring va na o'zing mansub avlod vakillari mulohazalaridan topa olasan. Ichki ehtiyoj esa javob izlashga majbur qiladi, tindirmaydi.

Eng muhimi, yozuvchi mana shu izlanishlariyu iztiroblarini kitobxonga yuqtira olgani bilan uni ham tinch qo'ymadi va qo'ymayapti.

* * *

Ahmad A'zam deputatlik va turli rahbarlik ishlari bilan band bo'lib, birmuncha vaqt yozuvchilikdan uzoqlashib qolgan edi, lekin keyingi yillarda ijodga qaytdi. "Hali hayot bor" qissasi e'lon qilindi. Televidenienga "O'zi uylanmagan sovchi" degan serial yozib berdi.

Kuni kecha jurnalist va noshir Ahror Ahmad bir xushxabar aytib qoldi – Ahmad aka bilan yangi romanini tugatib, uni chop qilish to'g'risida nashriyot bilan muzokara boshlabdi...

Faxriyor

“Mohiyat”. 2009y. 26 iyun